



## “Qo‘rqma” romanida tarixiy haqiqat va badiiy talqin

UrDU Filologiya fakulteti o'zbek tili ta'lim  
yo'nalishi 3-bosqich talabasi Po'latova Rohila

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Qo‘rqma” romanining badiiy xususiyatlari, tipik obrazlar, tarixiy haqiqat va u bilan bog‘liq bo‘lgan badiiy talqin haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tipik obraz, roviy, “Ko‘mak”, Darmshtadt, Chandir Qiyot qishlog‘i.

Kitobxonlar mehrini qozongan, ko‘plab bahs-u munozaralarga sabab bo‘lgan va bo‘lib kelayotgan “Qo‘rqma” romanida o‘tgan asrning 20-yillarida Germaniyada tahsil olgan va Sovet Ittifoqi tomonidan turli xil bo‘xton va tuxmatlar bilan qamalib, qatl etilgan millat yigit-qizlarining hayoti, boshidan kechirgan qiyinchiliklari tasvirlangan. Dastlab asarning tili, uslubi, o‘zgacha jihatlariga to‘xtalsak. Asar yangicha uslubi va ohangi, yangicha tafakkuri, yangicha qarashlari orqali boshqa asarlardan tubdan farq qiladi. Romanni o‘qir ekanmiz, undagi so‘zlarning mohirona qo‘llanganligiga hamda yozuvchining mahoratiga guvoh bo‘lamiz. Xususan Bahodir Karim ta’kidlaganidek:

“Romanning ifoda yo‘sinida ortiqcha “dedi-dedi”lar ham, zerikarli uzundan-uzun diologlar ham yo‘q. Jumalari ma’nili, ta’sirli va pishiq. Biror qisqa jumla boshini o‘qiysiz, uning davomi siz o‘ylagancha tugamaydi. Boshqacha fikr, boshqacha so‘z va qo‘shimchalar bilan tuganchiga yetadi gap. Shuning uchun o‘sha jumlaning qayta o‘qishga zarurat sezasiz. Haddan tashqari faylasuf, oqilu dono bo‘lishga ruju qo‘yish ham kuzatilmaydi. Romanda alg‘ov-dalg‘ovli asr voqealari, o‘tgan zamon va uning ichida harakatlanayotgan insonlar obrazi bor. Asosiy sahnada — Roviylar.

“Qo‘rqma” – taqdir, tahqirlar, ta’bir va tadbirlar romani. Unda tarix, ingranish, chorlov, nadomat, nafrat, mehr-muruvvat mujassam.

“Qo‘rqma” — dardlar garmoniyasi. Bu romanni fikrlab, xayol va aqlni ishga solib, ora-sira syujetning uzilgan iplarini ulab o‘qish kerak”

Asarda biror qisqa jumlaning o‘qish, uning davomi biz o‘ylagancha tugamasligi kitobxon e’tiborini tortadi. Haqiqatan ham asar shu jihati bilan ham o‘zgachalik kasb etgan. Lekin bu xususiyat asar boshida ancha ko‘p qo‘llangan bo‘lsa, so‘ngida bir qadar susaygan. Va aksincha asar yakunida voqealar rivojiga katta e’tibor qaratilgan.

Tarixga nazar tashlasak, 1922-yilning sentabrida o‘zbekistonlik yoshlar Yevropa ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo‘lishlari uchun hamda bu bilim, tajribalarni o‘z Vatani rivoji yo‘lida sarflashi uchun nemis tuprog‘iga qadam qo‘yganlar. Bu jarayonda olovqalb, shijoatkor talabalarga oddiy xalq, ma’rifatli insonlar moddiy yordam ko‘rsatganlar hamda Germaniyada tahsil olish uchun “Ko‘mak” tashkilotini tuzishgan. Sababi, Germaniya shu



yillarda ilm-fan, texnika va madaniyat jihatidan jahonning eng taraqqiy etgan mamlakati edi. Garchi o'sha davrda kutilgan natijani bermagan bo'lsada, 70 nafar o'zbekistonlik talabani Germaniyaga tahsil olishga ketishi o'z davri uchun katta yutuq hisoblangan.

Asarda nomlari tilga olingan Abduvahob Murodiy, Akmal Ikromov, Ahmadjon Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Abdumajid Ibrohim, Azimbek Berimjonov kabi tarixiy shaxslar orqali asar voqealari yanada qiziqarli tus oladi. Bu o'rinda biz tarixiy haqiqatning guvohi bo'lamiz. Adabiyotshunos va tarixchi olim Sherali Turdiyevning "Ular Germaniyada o'qigan edilar" kitobida yuqorida nomlari qayd etilgan talabalarning hayoti, ularning tahsil olish uchun Germaniyaga ketish jarayoni, Vatandagi qiyinchiliklari keng tasvirlab berilgan.

Asardan joy olgan Abduvahob Murodiyning nutqi ham tasirchan yo'sinda tasvirlangan:

"Vatanda ko'pchilik ochlik, xo'rlik va oddiy kasalliklardan halok bo'layotgan paytda Ovro'pada shuncha oltin tangalarni sarf etib nega o'qiyapmiz? Nega, nega? Bunga o'zimizni arzimamizmi? Bizga sarf etilgan o'yin tangalar sil-u vabodan o'layotgan Turkiston bolalariga malham bo'lishi ham mumkin edik-ku? Yo'q millat ziyolilari bir bolani emas, millionlab bolalarni asrashi uchun sizni o'qitmoqda..."

Bu o'rinda yozuvchi Abduvahob Murodiy orqali tipik obrazni shakllantirgan va bu tipik obrazlar orqali davrning mashaqqatlarini, Sovet Ittifoqi tuzumini yaqqol tasvirlagan.

Birinchi o'zbek agronomi Abduvahob Murodiyga yuzlanar ekanmiz, bevosita tarixga murojaat qilamiz:

"1919-yil Abuvahob Murodiy Toshkent taraqqiyparvarlari va "Muallimlar jamiyati" ko'magi bilan xorijda tahsil olish maqsadida yana safarga o'tlanadi. U Afg'oniston, Turkiya mamlakatlari orqali Germaniyaga yetib boradi. 1921–1926-yillarda Berlindagi Qishloq xo'jaligi akademiyasida o'qib, Yevropa ta'lim muassasasida oliy ma'lumot olgan birinchi o'zbek agronomiga aylanadi"

Shu o'rinda tipik obraz masalasiga yuzlansak:

"Umumlashtirish darajasiga ko'ra ham badiiy obrazning qator ko'rinishlari — individual obraz, xarakter, tipik obraz kabilarga ajratiladi.

Tipik obraz deyilganda muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit, davr va muhitga xos muhim xarakterli xususiyatlarni o'zida nomoyon etgan obraz nazardatutiladi".

Bundan tashqari asarda ayollarning shijoati, bilim yo'lida har qanday qiyinchiliklarga dosh berishi bilan bir qatorda ularning Vatan oldidagi burchi, Vatanga bo'lgan muhabbati, farzand mehri ta'sirchan yo'sinda tasvirlangan.





Ayol — oila va jamiyat ustuni, hayotimizning go‘zal fayzi. Ayollari qadr topgan yurtning buguni, ertasi farovon. Ayol matonat, sadoqat, sabr-bardosh timsoli.

Ayolning farzand tarbiyasidagi o‘rni va roli beqiyos. Dunyoqarashi keng, bilimli, salohiyatli ayollargina Vatan kelajagi uchun mard o‘g‘lon, oqila qizlarni tarbiyalay oladi. Shunday ekan har davrda, har zamonda ayolning yuksalishi, bilim olishi alohida ahamiyat kasb etadi. Lekin, bunday holni to‘g‘ri baholay olmagan sovet davri vakillari, boringki o‘tgan davr muhiti ayollarning bilim olishlariga to‘sqinlik qilishlari ayanchli ahvol edi. Bu kabi xo‘rliklarga, tazyiqlarga tarix guvoh.

Romanda shunday jumalarni o‘qiymiz:

“ Germaniyada o‘qish uchun rozilik berganim yagona aybim. Emizikli bolam haqqi, har doim vijdonim pokligini saqlaganman, qalbimda zarracha g‘ayirlik bo‘lmagan, ont ichaman. Yana nima dey, nima istaysiz?

Savol bering, jazo bering, hammasiga tayyorman, chaqalog‘im och, emishi kerak. U hali judayam yosh va nimjon. Iltimos, menga uni ko‘rsating! Kelayotganimda yo‘talib qolga edi, hozir qaqshayotgandir bechora!

O‘qimay men o‘lay! Agar shu xatom bo‘lmaganida, boshimga bunchalik azoblar tushmagan va taqdirimboshqacha, baxtli ko‘chaga burilarmidi? Adolatsizliklar va tuhmatlar ichida qolib ketaman, deb o‘ylamagandim!”

Asardan joy olgan bunday jumlar inson qalbini o‘rtaydi. Nahotki, o‘sha davrda chet davlatda o‘qish, bilim orttirish, tajriba o‘rganish katta xato hisoblangan? Ayol chorasizlikdan barcha tuhmatlarga, bo‘htonlarga rozi. Sabab, ona mehri. Ayol shunday zotki, farzandi uchun o‘z jonini qurbon qilishga tayyor.

Asarni o‘qishni davom etar ekanmiz:

“ Xorazm partiya Markaziy Qo‘mita byurosining qarori bilan Turkistondan Germaniyaga ketayotgan yoshlar qatoriga qo‘shildim. 1922- yildan 1924-yilning boshlarigacha Berlinda bo‘ldim, keyin esa Darmshtadtga ketdim. Shuning uchun Berlindagi talabalarning siyosiy harakatlariga aralashmaganman”

Shu o‘rinda biz asardan joy olgan, badiiy yo‘sinda ta’svirlangan tarixiy haqiqatning guvohi bo‘lamiz. Xorazmdan Germaniyaga tahsil olish uchun ketgan bu ayol xorazmlik Maryamxon Sultonmurodova. Lekin asarda uning ismi keltirilmagan. Ammo shu ayol asarda tipik obraz sifatida o‘z ifodasini topgan. Biz uning Xorazmdan ekani, dastlab Berlinda bo‘lishi, keyinchalik Darmshtadtga ketishi kabi ma'lumotlarni tarixga oid asarlar orqali bilib olishimiz mumkin.



“Maryam Sultonmurodova ham yurtimizga ilm-ma’rifat- yorug’lik istagan mard va jasur ayollardan biri edi. U 1905-yil 13-fevralda Xiva shahrida tug’ilgan. Dastlab Chandir Qiyot qishlog’ida dehqonchilik bilan shug’ullangan otasi Jumaniyoz Sultonmurodov 1916-yilgi xalq qo’zg’olonida ishtirok etib Xiva xonining ta’qibiga uchraydi. 1917-yilda u oilasi bilan xonlikni tark etib, 1919-yilgacha To’rtko’lda yashashga majbur bo’lgan. Inqilob natijasida Xiva xonligi hududiga qaytib kelgan Jumaniyoz Sultonmurodov bolsheviklar yordamida Harbiy tribunal rahbari, Xorazm Xalq Respublikasi Xalq komissarlari Kengashi raisi, Xorazm kompartiyasi kotibi lavozimlarida ishladi”.

Ana shunday mard, shijoatli insonning farzandi bo’lgan Maryamxon ham otasi izidan borib Vatan yo’lida, Vatanning kelajagi, ravnaqi uchun astoydil kurashdi.

Asarda bu kabi mardliklarni, hozirgi zamon uchun har tomonlama o’rnak bo’la oladigan o’rinlarning ko’p guvohi bo’lamiz.

Xulosa qilib aytganda, “Qo’rqma” romanida turkistonlik 70 talaba orqali yozuvchi o’sha davrning mashaqqatini, Sovet Ittifoqi tuzumini tipik obrazlar orqali tasvirlab bergan. Asar chin ma’noda hozirgi davr va talabalar uchun o’rnak bo’la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karim B. “Litotragik roman — “Qo’rqma” haqida “Ma’rifat”
2. Jovliyev J. “Qo’rqma”. Toshkent— 2022
3. Quronov D. “Adabiyotshunoslikka kirish” — Toshkent 2022
4. Turdiyev Sh. “Ular Germaniyada o’qigan edilar” — Toshkent 2006.



ILMIY NASHRLAR MARKAZI